

**YETAKCHILIK USLUBLARINING XORIJIY VA MAHALLIY TADQIQOTCHILAR
KONTSEPSIYALARI ASOSIDA TASNIFI**

Roziqova Muyassarxon Muxammadjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Ta'lif muassasalari boshqaruvi

yo'nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Quyidagi maqola umumiyl o'rta ta'lif maktablari boshqaruvida foydalaniladigan yetakchilik uslublarini tasnifini yoritib berishga asoslangan bo'lib, unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy kontsepsiyalari o'rganiladi va tahlillari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lif tizimi, rahbar, boshqaruvi, tadqiqotlar, rahbarlik uslubi, avtoritar, liberal, demokratik, nazariyalar, boshqaruvi funksiyasi, motivlar, menejer, xodimlar.

Yurtimizda ta'lif tizimiga mamlakatni barqaror taraqqiy ettirishning muhim omili sifatida e'tibor qaratilayotgani qisqa fursatdayoq o'z samarasini ko'rsata boshladidi. Bu xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Istiqlol yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va qator Prezident qarorlari asosida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan bildirilgan quyidagi mulohazalar har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan mas'ul rahbarlarni yanada mas'uliyatlariq bolishga, hushyorlikka undadi: "Ayniqsa, zamonning yurishi, ozgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar ozgarishi kerak. Biz XXI asr - intellektual taraqqiyot asri, deb kop gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo ozining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bolishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni kora oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bolib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bolishi lozim". [1]

Boshqaruvi samaradorligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar asosan raxbarlik faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi raxbarlik uslublarini taxlil qilishga qaratilgan. Bular o'z navbatida raxbarlik uslublarini o'rganishga bo'lgan taktik, strategik va turli xil yondashuvlarni taxlil qilish zaruriyatini belgilaydi.

Professor S.T. Turg'unovning rahbarlik uslublari haqidagi kontsepsiyasining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Demak ular:

1. Avtoritar (direktiv) uslubda professor-o'qituvchilar o'z irodasini o'quvchi-talabalarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqtish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, o'quvchi-talabalarni so'zsiz bo'y sunishini nazarda tutadi.

2. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi professor-o'qituvchilarning o'quvchi-talabalarga topshiriq va maslahatlarni tavciyalar ko'rinishida berishi, o'quvchi-talabalarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi.

3. Demokratik (kollegial) uslubda professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, ular o'z faoliyatini o'quvchi-talabalarga tayangan holda va ularning fikrini inobatga olish asosida, ya'ni pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalarning mustaqil va erkin fikrashi, o'z qobiliyatlarini erkin namoyish etishlariga yo'naltiradi. [70, 4]

Yetakchilik nazariyasiga binoan yetakchi asosiy e'tiborini qaysi masala: mehnat faoliyatiga yoki insonga yo'naltirishiga qarab farqlash qabul qilingan. Bu yondashuv muallifi D. Mak Gregor hisoblanib, uning "X" va "U" nazariyalari mavjuddir.

"X" nazariyasiga binoan diqqat — e'tibori ishga qaratilgan, guruhga aniq topshiriqlar beradigan, buysunuvchi xodimlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatadigan va ularga psixologik bosim o'tkazadigan avtokratlar eng yaxshi rahbar hisoblanadilar. "U" nazariyasiga ko'ra esa — asosiy e'tibori insonga qaratilgan inson munosabatlari nazariyasini amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay oladigan demokratik rahbar eng yaxshi rahbar hisoblanadi. [113, 3]

R.X.Shakurov raxbarlik uslubini "ma'lum bir sharoitda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan, ichki o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bulgan (motivlar, maqsadlar, mazmun, usullar), raxbar faoliyatining mustahkam takrorlab turuvchi o'ziga xos yaxlit tizim, ya'ni uslub - bu faoliyat usullarining o'ziga xos tizimi" deb belgilaydi.

M.Sharifxo'jayev va Yo.Abdullayevlarning ta'rifiga ko'ra, "boshqaruv uslubi - bu boshqaruv jarayonida yuzaga chiqadigan muammolarni xal qilish usullari, yo'llari majmuidir" , "boshqaruv usullari - bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi" .

N.V.Revenko ning fikricha, "raxbarlik uslublari raxbar faoliyatining integrativ xususiyati bo'lib, u orqali raxbarning shaxsiy sifatlari, xodimlar bilan o'zaro munosabatlari va faoliyatining uziga xosligi ifodalananadi" .

S.S.G'ulomov boshqaruv uslubining aniqlanishi va mazmuni haqida fikr bildirib, uni raxbar faoliyati kabi tavsiflash mumkin, deb quyidagicha asoslaydi: "Boshqaruv uslubi - bu ish uslublarining to'plami bo'lib, u o'zining faoliyatida ushbu boshqaruv apparatini qo'llaydi. Boshqaruv uslubi boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv usuli - bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi usul va yo'llarning to'plamidir" .

Bir qator tadqiqotchilar R.Valijonov, Odobulov, A. Ergashevlar "raxbarlik uslubi menejer xarakatining uzigi xos xulqidir. Raxbarlik uslubini yanada to'liq ma'nosi: menejerning nisbiy qat'iy tizim yo'llari, uslubi va amaliy faoliyat shaklidir. Bundan tashqari boshqarish uslubi deganda menejerning boshqarish qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida xarakat tarzi va xulqiy usuli tushunishadi. [36, 2]

Xulosa o'rnida avtoritar rahbarlik demokratik etakchilikdan ko'ra ko'proq ish olib borishini aniqladi. Biroq, avtoritar rahbarlik ostida motivatsiya past, o'ziga xoslik, guruhlarda kamroq do'stona munosabat, jamoaviy fikrlashning etishmasligi va boshqa salbiy omillar mavjud. Liberal rahbarlik uslubi bilan ish hajmi kamayadi, ish sifati pasayadi, o'yin ko'proq bo'ladi. Har bir holatda, avtoritar, demokratik va liberal uslublar o'rtasida ma'lum bir muvozanat mavjud bo'lib, ulardan birining elementlari ulushining ortishi boshqalarning kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 01.07.2017
- 2.Abduraxmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. “Personalni boshqarish” (Darslik) – Toshkent: TDIU, 2013.
3. S.T. Turg'unov. Umumiyl o'rta ta'llim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatini nazariy asoslari. —Toshkent. Fan-2006
4. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. —Toshkent. Fan-2009